



УДК:321

ILMSIZ JAMIYATNING KELAJAGI BORMI?

Bahromjon G'ofurov,

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),

Guliston davlat universiteti, "Ijtimoiy fanlar" kafedrası dosenti v.b.

+998 97 277 59 68 ; baxromjongofurov7@gmail.com

Surojiddin Mahmudov,

GulDU "Falsafa" yo'nalishi 76-24 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilmning jamiyat hayotidagi o'rni, ilmiy tafakkur mavjud bo'lmagan sharoitda yuzaga keladigan ijtimoiy, ma'naviy va madaniy inqirozlar, shuningdek, ilmi va ilmsiz jamiyatning rivojlanish istiqbollari falsafiy va sosiologik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Maqolada ilmning iqtisodiy taraqqiyot, ma'naviy barqarorlik, texnologik rivojlanish va inson ongining shakllanishidagi hal qiluvchi roli yoritiladi. Zamonaviy texnologiyalar, internet, onlayn ta'lim va yangi kasblar rivoji nuqtai-nazaridan ilmning jamiyat kelajagidagi ahamiyati keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: ilm, jamiyat, tafakkur, ma'naviyat, ijtimoiy taraqqiyot, texnologiya, tanqidiy fikr, sosiologik tahlil, ma'rifat.

ЕСТЬ ЛИ БУДУЩЕЕ У ОБЩЕСТВА БЕЗ НАУКИ?

Бахромджон Гафуров, Сурожиддин Махмудов

Гулистанский государственный университет

Аннотация: В данной статье анализируется роль науки в обществе, социальные, духовные и культурные кризисы, возникающие в отсутствие



научного мышления, а также перспективы развития научного и ненаучного общества на основе философских и социологических подходов. В статье подчеркивается решающая роль науки в экономическом развитии, духовной стабильности, технологическом развитии и формировании человеческого сознания. Важность науки для будущего общества широко освещается с точки зрения современных технологий, интернета, онлайн-образования и развития новых профессий.

Ключевые слова: наука, общество, мышление, духовность, социальное развитие, технология, критическое мышление, социологический анализ, просвещение.

DOES SOCIETY HAVE A FUTURE WITHOUT SCIENCE?

Bakhromdoon Gafurov, Surojiddin Makhmudov

Gulistan State University

Abstract: This article analyzes the role of science in society, the social, spiritual and cultural crises that arise in the absence of scientific thinking, as well as the development prospects of a scientific and non-scientific society based on philosophical and sociological approaches. The article highlights the crucial role of science in economic development, spiritual stability, technological development and the formation of human consciousness. The importance of science in the future of society is widely covered from the perspective of modern technologies, the Internet, online education and the development of new professions.

Keywords: science, society, thinking, spirituality, social development, technology, critical thinking, sociological analysis, enlightenment.



KIRISH. Ma'lumki, mamlakatimizda ilm-fan va innovasion faoliyatni yanada rivojlantirish va kadrlar ilmiy salohiyatini mustahkamlashning qonuniy asoslarini belgilovchi 3 ta muhim Qonun – O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktyabrdagi «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi O'RQ-576-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 iyuldagi «Innovasion faoliyat to'g'risida»gi O'RQ-630-son Qonuni hamda 2020 yil 23 sentyabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son Qonunlar qabul qilindi [1,2,3,4,5]. Jumladan, «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni da ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasini moliyalashtirishning tartiblari, chet davlatlarda olingan ilmiy darajalar va ilmiy unvonlarning O'zbekiston Respublikasida tan olinishining huquqiy asoslarini hamda mamlakatda ilm-fan sohasidagi kadrlarning rivojlangan davlatlar darajasida tan olinishi belgilab o'tildi [10, b.189].

B.Uzokovning fikricha, ilm-fan jamiyatning barcha a'zolari uchun emas, balki jamiyatning eng yuqori – elitar qatlami (ziyolilar, tadbirkorlar, mansabdor shaxslar) tomonidagina qadriyat sifatida anglanadi. Ayni vaqtda ilm-fanga o'zining butun ongli hayotini bag'ishlagan ziyolilar uchun ilmiy qadriyatlar oliy qadriyat, hayotning ma'nosi, o'zlikni namoyon etish vositasi sifatida anglanadi. Ilmiy qadriyatlar – kishilardagi intellektual-ma'naviy qobiliyat va iste'dodni ro'yobga chiqarish, ajdodlarimiz ilmiy merosini chuqur o'rganish, voqelikni tadqiq etish orqali yangilik va kashfiyotlar yaratishga imkon beradigan g'oyalar, asarlar, o'quv va ilmiy muassasalar, olimlar jamoasi, ilm ahllari majmuasidir. Ilmiy qadriyatlar keng qamrovli falsafiy tushunchadir. Bu tushuncha fandagi vorisiylik, an'anaviylik, novatorlikni o'zida dialektik tarzda uyg'unlashtiradi. Ilmiy qadriyatlar tarkibiga eng avvalo insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan barcha allomalarning o'lmas asarlarini kiritish mumkin [9, b.1438].

Ilm-fanni muntazam isloh qilib borish, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizasiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida 2020 yil 29



oktyabrda Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi qabul qilingan. Konsepsiyada ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish, yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash, yoshlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirish va yutuqlarini rag'batlantirish, ilm-fan va ilmiy faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish kabi maqsadli ko'rsatkich va indikatorlar belgilab olingan. Ayni yo'nalishdagi vazifalar mamlakatimizni isloh etish va yangilash jarayonlarini jadallashtirib, "Uchinchi Renessans" poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. B.Uzokov maqolasida Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy islohotlar tizimida ilmiy qadriyatlarning tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan [9]. F.A.Kushakov maqolasida ilmiy-texnik kashfiyotlarning, ilmiy-texnik inqilobning inson ijtimoiy faoliyatiga ta'siri va uning falsafiy ahamiyati tahlil qilingan [7]. E.N.Buribayev maqolasida mamlakatimizda ilm-fan sohasida joriy holat, unga ta'sir etuvchi omillar, ilm-fan sektorining tuzilishi va moliyalashtirish jarayoni, mavjud muammolar hamda ilm-fanni kelajakda rivojlanish yo'nalishlari o'rganilgan va kerakli statistik ko'rsatkichlar orqali tahlil etilgan [6]. N.X.Haydarov va Sh.Sh.Fazliddinovlarning maqolasida mamlakatimizda innovasion faoliyatni boshqarishni takomillashtirish uchun qabul qilingan normativ hujjatlar, ularda belgilangan vazifalar ochib berilgan [10]. O'.Ochilov ilm-fanning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatning ahamiyati va bu boradagi huquqlarni tahlil qilgan [12]. A.Aslanova o'z maqolasida ilmmetriyaning ilm-fan rivojidadagi o'rni xususida fikr yuritgan [11].

Tadkikotning nazariy va uslubiy asoslarini ilm-fanni rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar natijalari, ushbu sohada qabul qilingan Prezident qarorlari va farmonlari asos buldi. Ilmiy maqolada ko'tarilgan muammoni atroflicha tahlil qilishda dialektik tadkikot, tizimli tahlil kabi usullardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Ilm jamiyatning eng asosiy tayanchi, insoniyat taraqqiyotining bosh harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Insonning



fikrlashi, dunyoni anglash jarayoni, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy muvozanati ilm orqali shakllanadi. Shu bois ilm yo'qligi - jamiyatning nafaqat sekinlashuviga, balki to'xtab qolishiga, tanazzulga yuz tutishiga ham olib keladi. Ilmsiz jamiyatning kelajagi haqida savol qo'yilganda, aslida jamiyatning o'zi qanday mavjud bo'la olishi, taraqqiyotning qanday davom etishi, insonning axloqiy va ma'naviy mazmuni qanday bo'lishi kabi savollar ham yuzaga chiqadi. Ilmsiz jamiyat – bu avvalo tanqidiy fikrlashdan mahrum bo'lgan, qarorlar tasodifiy shakllanadigan, ijtimoiy hayotda tartibsizlik va jaholat hukmron bo'ladigan jamiyatdir.

Nazariy jihatdan tahlil qilinganda, ilm insonning hayotiy faoliyati uchun zarur vositalarni yaratadi. Jamiyatdagi texnologik taraqqiyot, ishlab chiqarish, tibbiyot, aloqa, transport va iqtisodiy tizimlarning barchasi ilmiy izlanishlar mahsulidir. Agar jamiyat ilmga suyanmasa, mavjud texnologiyalarni na rivojlantira oladi va na ularni ongli ravishda boshqara oladi. Natijada texnologiya faqat iste'mol qilinadigan, lekin yaratilmaydigan boylikka aylanadi. Bu esa jamiyatni tashqi manbalarga tobelikka olib keladi, ichki rivojlanish imkoniyatlarini keskin cheklaydi.

Ilmning yetishmasligi jamiyatda ishsizlik darajasini ham oshiradi. Chunki, yangi texnologiyalarni boshqarish, zamonaviy kasblarni egallash, raqamli iqtisodiyotda faol bo'lish uchun bilim talab qilinadi. Ilmsiz yoki bilim darajasi past jamiyat esa texnologik muhit bilan hamqadam bo'la olmaydi. Bu holat kambag'allikning kuchayishiga, iqtisodiy tabaqalanishning ortishiga, ijtimoiy adolatsizlikning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Ilmsiz jamiyatning yana bir muammosi – yolg'on axborotlarga ishonishning kuchayishidir. Tanqidiy fikr yo'qligi insonni oson aldovga uchratadi. Bunday sharoitda jamiyat turli fitna, mish-mish, asossiz g'oyalar ta'sirida qoladi. Jamiyatda aqlga tayanmagan qarorlar ko'payadi, ijtimoiy tartib buziladi va boshqaruv tizimi izdan chiqadi. Ilmsiz inson oxir-oqibat nima to'g'ri, nima noto'g'ri ekanini ajrata



olmay qoladi. Bu esa jamiyatda adolatsizlikning kuchayishi, qonunlarni suiiste'mol qilish, poraxo'rlik, ma'naviy inqiroz, jaholat va nizolarning ko'payishiga olib keladi.

Ilm yo'qligi – izlanishlar va kashfiyotlarning to'xtashiga, yangi g'oyalarning tug'ilmasligiga sabab bo'ladi. Insoniyat tarixidagi barcha yuksalishlar ilm bilan bog'liq bo'lgan. Agar ilm bo'lmasa, jamiyat yangilik yaratmaydi, faqat mavjud sharoitga moslashib yashaydi. Bunda taraqqiyot emas, balki turg'unlik yuzaga keladi. Tibbiyot, fizika, biologiya, kimyo, sosiologiya, falsafa va boshqa fanlarning rivoji bo'lmagan jamiyatda sog'liqni saqlash tizimi ojizlashadi, kasalliklar avj oladi, texnika orqada qoladi, iqtisodiy samaradorlik pasayadi. Aslida ilm bo'lmasa, internet, kompyuter, turli qurilmalar, zamonaviy aloqa vositalari, tibbiy muolajalar, yangi kasblar va taraqqiyotning o'zi bo'lmagan bo'lar edi.

Zamonaviy dunyo ilmning qay darajada muhim ekanini yaqqol namoyon etmoqda. Bugungi kunda onlayn ta'lim imkoniyatlari kengayib, har kim bilim olish imkoniga ega bo'lib bormoqda. Bu jarayon ilmning umumiy saviyasini oshiradi, jamiyatning raqamli savodxonligini kuchaytiradi va bilimning demokratlashuviga olib keladi. Ilmli yoshlar nafaqat o'z kelajagini, balki butun jamiyat taraqqiyotini belgilab bermoqda. Ular yaratayotgan yangi texnikalar, innovasiyalar va zamon talabi bilan uyg'un kasblar jamiyatni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqmoqda.

Ilm nafaqat moddiy rivojlanish, balki ma'naviy barqarorlikning ham kafolatidir. Ilm insonni anglashga, adolatli qarorlar qabul qilishga, ongli ravishda yashashga o'rgatadi. Ma'rifatli jamiyatda tartib mavjud bo'ladi, ijtimoiy munosabatlar aniqlik va adolatga tayanadi. Ilmsiz jamiyat esa hissiyotlar, shubhalar va tasodiflar boshqaradigan makonga aylanadi. Bu esa har qanday taraqqiyotning tugashi demakdir.

Shu ma'noda ilm – jamiyatning kelajagini belgilovchi asosiy mezondir. Ilm bo'lmasa, jamiyatning kelajagi qorong'u, notinch va tartibsiz bo'ladi. Ammo ilm rivojlangan jamiyatda iqtisodiy o'sish, texnologik yangiliklar, madaniy yuksalish, adolatli boshqaruv va ma'naviy uyg'onish yuz beradi.



Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining 27-moddasiga binoan, inson “ilmiy taraqqiyotda qatnashish va uning ne’matlaridan bahramand bo’lish...”, “o’zi muallifi bo’lgan ilmiy, adabiy yoki badiiy asarlar yuzasidan ma’naviy va moddiy manfaatlari himoya qilinishi huquqiga ega”ligi ilmiy tadqiqotlarga bo’lgan huquq va erkinliklari ta’minlanishiga xalqaro huquqiy asos yaratadi.

Yangi O’zbekistonda bilimga va innovasiyalarga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichiga o’tish jarayonini amalga oshirishda asosiy e’tibor intellektual kapitalga, uning tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy asoslarini shakllantirish, ilm-fan bilan shug’ullanish huquq va erkinligini ta’minlashga qaratilmoqda. “O’zbekiston – 2030” strategiyasi bilan ilm-fan sohasidagi huquq va erkinliklarni amalga oshirish uchun amaliy ahamiyatga ega bo’lgan muhim qadam qo’yildi. Xususan, oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish belgilandi [12].

Davlatimiz tomonidan ilm-fanni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar faqat bugungi kun uchun emas, balki keyingi o’n yilliklar uchun jamiyat ravnaqi va farovonligi poydevorini qurishga xizmat qiladi. Milliy fanning jahon faniga qo’shilishi, O’zbekiston olimlarining jahon ta’lim, ilm-fan va innovasiya markazlari bilan faol hamkorlik qilishi, olamshumul kashfiyot va ixtirolarni amalga oshirishga hissa qo’shishi va bu ishlarda erkin bo’lishi yangi O’zbekiston

Har bir davlat rivojining asosi ilm-fan bilan bevosita bog’liq. Bugungi shiddatli globallashuv va to’rtinchi sanoat inqilobi davrida mamlakatlarning xalqaro maydondagi nufuzi faqatgina tabiiy resurslar yoki geografik kenglik bilan emas, balki intellektual salohiyat va innovasion g’oyalar bilan belgilanmoqda. Dunyo xaritasida o’z o’rnini mustahkamlayotgan davlatlar tajribasi shuni ko’rsatadiki, taraqqiyotning eng qisqa va ishonchli yo’li – bu ilm-fanni milliy siyosat darajasiga ko’tarish va unga strategik sarmoya kiritishdir. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, Yangi O’zbekistonni barpo etishda eng ishonchli tayanchimiz ilm-fan va ta’limdir. Raqobatbardosh davlat – avvalo raqobatbardosh ilm-fanga tayanadi.



Bu fikr shunchaki shior emas, balki uchinchi Renessans poydevorini qurishning fundamental strategik asosidir. Chunki har qanday buyuk sivilizasiya zamirida avvalo olimlar mehnati, fundamental tadqiqotlar va yuksak ilm yotadi. Buyuk mutafakkir bobomiz Abu Rayhon Beruniy “Ilm – insonni yuksaltiruvchi eng buyuk kuchdir,” deb ta’kidlagan bo’lsa, Alisher Navoiy hazratlari “Olim bo’l, jahon senga muhtoj bo’ladi,” deya ilm ahlining jamiyatdagi o’rnini yuksak baholagan.

Dunyodagi yetakchi universitetlarning barchasi kuchli ilmiy maktablar asosida shakllangani buyuk ajdodlarimizning bu fikrlari hozir ham o’z qadr-qimmatini yo’qotmaganini ko’rsatmoqda. Bugun universitetlarimiz zimmasida to’rtta muhim vazifa turibdi: ular nafaqat bilim berish maskani, balki innovasiya generatori, startaplar manbai va hududiy taraqqiyot lokomotivi bo’lishi lozim. Zamonaviy dunyoda oliy ta’lim muassasasi “University 3.0” va “University 4.0” konsepsiyalari asosida iqtisodiy o’sishning asosiy drayveriga aylanishi shart. Bu jarayonda Sun’iy intellekt (AI) va katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan foydalanish tadqiqotlar tezligi va aniqligini bir necha barobar oshiradi [13].

Ilm-fanning "lokomotivi" olimlar sanalib, ularning ilmiy faoliyati o’lchovi ilmmetriya hisoblanadi. Ilmmetriya (ruschada Naukometriya) – inglizchada "Scientometrics" – ilm-fanni o’lchash ma’nosini anglatib, bu atama fanga ilk bor 1969 yilda kirib kelgan. Ilmmetriya ilmiy jamoatchilik vakillari uchun nihoyatda muhim o’lchov deb aytsak, to’g’ri bo’ladi. Ilmmetriyaning bir nechta ko’rsatkichlari mavjud. Jumladan: iqtiboslar indeksi; ilmiy jurnalning iqtiboslar indeksi; impakt-faktor; Xirsh indeksi; kvartil (chorak) Q dan iborat. Bulardan eng muhimi iqtiboslar ko’rsatkichi hisoblanib, unda tadqiqot ishiga berilgan iqtiboslar soni va sifati o’lchanadi. Mazkur natijalarni tahlil etish asnosida olim, OTM va ITMlar ilmiy natijadorlik ko’rsatkichlarini aniqlash va maxsus reytinglar shakllantirish mumkin. Misol uchun, 2021 yilda mahalliy olimlar tomonidan "Scopus" ma’lumotlar bazasida chop etilgan ilmiy maqolalar bo’yicha tahlil o’tkazildi. Tadqiqot natijasiga ko’ra bazadagi eng ko’p



maqolalar muhandislik yo'nalishida (11.8 foiz), eng kam natija esa (2.2 foiz) kimyo yo'nalishida ekan [11].

E.Buribayevning yozganidek, olimlarimizning jahonning nufuzli ma'lumotlar bazalarida indeksasiyadan o'tgan yuqori impakt faktorli jahon jurnallarida maqolalar chop etish darajasi past. Hozirda WEB of Science, SCOPUS kabi ma'lumotlar bazasida indeksasiya qilinadigan xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar orasida O'zbekistonning yalpi ulushi 0,1 foizga yaqin. O'z ichiga 5 mingdan ortiq nashriyotlarning 22 ming nomdagi ilmiy jurnallarini olgan Scopus ma'lumotlar bazasi asosida SJR (ScimagoJournal&CountryRank) resursining tahlillariga ko'ra, O'zbekiston bitta maqolaga havolalar ko'rsatkichi bo'yicha jahonning 239 davlati o'rtasida 220-o'rinni egallab (6,52), mamlakatimizning H-index ko'rsatkichi 86 ni tashkil etmoqda [6; 8].

Rossiyaning B.Yelsin nomidagi Ural Federal universiteti Ilmmetriya laboratoriyasi mudiri Mark Akoyevning fikricha, ilm-fan yo'nalishida xalqaro tajriba almashish doimo yaxshi samara beradi. Ilmmetriya ko'rsatkichini oshirishuvchi bu yo'nalish bugun O'zbekiston Innovasion rivojlanish vazirligi tomonidan xorijga stajirovka o'tash ko'rinishida yo'lga qo'yilgan.

Joriy yilda O'zbekistonda doktorantura, doktorantlarnig ilmiy tadqiqotlari, dissertasiyalari talablariga ayrim o'zgartirishlar kiritildi. Bu borada O'zMU professori Jaloliddin Yusubov o'z Telegram kanalida "Ilmiy rahbar ham o'z yo'nalishining mutaxassisi bo'lishi kerak" deb, quyidagi fikrlarni bildirdi: "Endilikda ilmiy rahbar doktorantning ixtisosligiga mos fan tarmog'ida ilmiy tadqiqot tajribasiga ega bo'lishi talab etilmoqda. Bu juda to'g'ri qaror. Chunki texnika fanlari bo'yicha ilmiy daraja olgan olim iqtisodiyot, pedagogika yoki filologiya yo'nalishidagi doktorantga sifatli ilmiy rahbarlik qila olmasligi tabiiy hol. Har bir fan sohasi o'z metodologiyasi, ilmiy maktabi va tadqiqot usullariga ega. Xalqaro tajribada ham doktorantga ilmiy rahbar tanlashda eng avvalo uning aynan shu yo'nalishdagi ilmiy ishlari, maqolalari va tadqiqot tajribasiga e'tibor beriladi.



Afsuski, bizda ba'zan ayrim olimlar o'zini deyarli barcha ixtisosliklarni tushunadigan universal mutaxassisdek ko'rsatishga urinadi. Vaholanki, bugungi ilm-fan shu darajada chuqurlashganki, hatto bitta fan tarmog'ining ichidagi barcha ixtisosliklarni ham mukammal egallash qiyin. Doktorant sifatli ilmiy natijaga erishishi uchun unga aynan o'sha sohaning ichida ishlab kelayotgan, muammolarini yaxshi biladigan va zamonaviy tadqiqotlardan xabardor mutaxassis rahbarlik qilishi kerak. Ilmda sifat to'g'ri mavzu va kuchli ilmiy rahbardan boshlanadi". Biz ham bu fikrlarga qo'shilamiz. Zero, ilm inson hayotidagi eng muhim va hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Inson tomonidan yo'naltirilgan har qanday faoliyatning asosida ilmiy yangiliklar yotadi [7, b.996].

XULOSA. Ilm – jamiyatning yuragi, tafakkurningozuqasi, inson kamolotining yagona yo'li, jamiyat taraqqiyotning tayanchi va kafolatlaridan biridir. Agar ilm-fan bo'lmaganida, bugungi internet, tibbiyot yutuqlari, texnika-texnologiyalar, zamonaviy kasblar, umuman taraqqiyotning o'zi mavjud bo'lmas edi. Shuning uchun har qanday jamiyat faqat ilm orqali o'z kelajagini yaratadi.

O'zbekistonni 2030 yilga qadar global innovasion indeks reytingida dunyoning 50 ta yetakchi davlatlari qatoriga kiritish bo'yicha ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e'lon qilindi. Mazkur maqsad ilm-fan sohasini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirishdan iborat bo'lib, o'z navbatida, ilm-fandagi tegishli huquqiy baza bilan tartibga solinadigan tub tarkibiy, tashkiliy, moliyaviy hamda kadrlar va infratuzilmaga oid islohot-o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan.

Keyingi yillarda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning ilmiy asoslari ta'minlanishi samaradorlik uchun muhim mezon bo'lmoqda. Zero, ilm-fan jamiyat taraqqiyoti va farovonligining asosiy omilidir. O'zbekiston zaminida yetishib chiqqan ulug' allomalar, buyuk mutafakkirlarning butun jahon ilm-fani, ma'rifati, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi Birinchi va Ikkinchi Sharq Renessansi nomi bilan tarixga kirgan. Bugungi kunda



olimlarni qo'llab-quvvatlash, ularning haq-huquqlarini himoya qilish Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo'lida davlatning ustuvor vazifalari hisoblanadi.

Адабиётлар (References)

1. Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 29.10.2020 йилдаги ПФ-6097-сон <https://lex.uz/docs/5073447>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 августдаги “Ёшларни илм-фан соҳасига жалб этиш ва уларнинг ташаббусларини қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-4433 қарори. <https://lex.uz/uz/docs/4494504>
3. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 29 октябрдаги «Илм-фан ва илмий фаолият тўғрисида»ги ЎРҚ-576-сон Қонуни. <https://lex.uz/docs/4571490>
4. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 24 июлдаги «Инновацион фаолият тўғрисида»ги ЎРҚ-630-сон Қонуни. <https://lex.uz/ru/docs/4910391>
5. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сон Қонуни. <https://lex.uz/docs/5013007>
6. Бурибаев Э.Н. (2024). ИЛМ-ФАННИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЗАРУРИЯТИ ВА ЖОРИЙ ҲОЛАТ ТАҲЛИЛИ. Экономика и социум, (2-1 (117)), 927-935. <https://cyberleninka.ru/article/n/ilm-fanni-rivozhlantirish-zaruriyati-va-zhoriy-holat-tahlili>
7. Кушаков, Ф.А. (2023). Илм ва техниканинг ижтимоий аҳамияти. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (2), 996-1003. <https://cyberleninka.ru/article/n/ilm-va-tehnikaning-izhtimoiy-a-amiyati>
8. Sattorkulov O.T., Rahmatov K., Samadqulov M. Innovatsion faoliyatini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash va rivojlantirish yo'nalishlari// Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi, №10/2, 2023. 156-163 b.



9. Узоков Б. Илм-фан ривожии ва қадриятлар тизими // Экономика и социум. 2024. №1(116). – С. 1436-1440. <https://cyberleninka.ru/article/n/ilm-fan-rivozhi-va-adriyatlar-tizimi>
10. Ҳайдаров Н.Х., Фазлиддинов Ш.Ш. Республикада инновацион ривожланишни ҳуқуқий пойдевори мустаҳкамланиши - катта марралар сари қадам ташлаш учун заминдир. // Improving Uzbekistan's position in International Ratings and Indexes: Theory, Practice and Strategy. International scientific and practical conference. November 17, 2023. P.186-196. <https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0013/M-29.pdf>
11. Асланова А. Илм-фан самарадорлиги ўлчовида илмметрия... (04.10.2022) https://uza.uz/uz/posts/ilm-fan-samaradorligi-olchovida-ilmmetriya_412793
12. Очилов Ў. Тараққиётни ҳаракатга келтирувчи куч // «Янги Ўзбекистон» газетасининг 2023 йил 31 октябрь кунги 226 (1015)-сони
13. Тўраев Р. Илм-фан – тараққиёт гарови (29.03.2026) https://uza.uz/kz/posts/ilm-fan-taraqqiyot-garovi_837108